



3. "Barkamollik yoshi" ma'noli leksik-semantik guruhlar, ularga kattalik va barkamollik yoshlarini yoki barkamollik yoshining birinchi va ikkinchi davrini ifodalovchi lisoniy birliklar jamlangan;

4. "Keksa yosh" ma'noli leksik-semantik guruhlarda, chunki, birinchidan, "qariy boshlagan yosh"ni ifodalovchi til birliklarining juda cheklangan soni mavjud, ikkinchidan, bir qator hollarda til birliklarining semantikasi bir vaqtning o'zida "qariy boshlagan yosh" va "keksalik yoshi" tushunchalarini bildirishi mumkin;

5. Umumlashtirilgan "yosh" semantikali leksik-semantik guruhlar. Ushbu leksik-semantik guruhga umuman "yosh" tushunchasini ifodalashga tegishli bo'lgan, hayotning "yosh" siklida ketma-ket turadigan ikkita "yosh davr"ini birlashtiruvchi, keksalik va yoshlikni qarama-qarshi qo'yuvchi leksemalar va frazeologizmlar kiradi, chunki inson bilan bog'liq juda ko'p hodisalar, ko'pincha qat'iy va aniq matematik tahlilga bo'ysunmaydigan murakkab va bir ma'noli bo'lmagan guruhlariga kiradi.

Ajratib ko'rsatilgan leksik-semantik guruhlarining har birining bevosita tahliliga kirishishdan oldin, ko'rsatib o'tamizki, ularning har biriga ham so'z birikmasi strukturali, ham gap strukturali (maqollar, matallar) birliklar kiradi.

ADABIYOTLAR:

1. Akhrorova Ruzikhon Usmanovna. "Yosh tushunchasi lingvistik talqini". Innovative Development in Educational Activities, 2023. B.187-190.
2. Akhrorova Ruzikhon Usmonovna. Naming of the "age" concept. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. 2022/10/20. -P. 178-182.
3. Akhrorova Ruzikhon Usmonovna. Essay writing terms. Texas Journal of Multidisciplinary Studies. 2022/12/22. -P. 107-109.
4. Brunetto Latini, Li Livres dou Trésor. – New York: Garland Publishing, Inc., 1993. – 57 p.



JAHON BOZORI. XALQARO VALYUTA VA KREDIT MUNOSABATLARI

Egamberdiyev Azizbek Komiljon o'g'li

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali 1-kurs talabasi

Annotasiya: *Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotning barcha mamlakatlar bilan bog'langan murakkab iqtisodiy munosabatlari tizimida xalqaro savdo munosabatlarining tutgan o'rni, xalqaro savdoning rivojlanishi, omillari va tuzilishi, xalqaro munosabatlarning moliyaviy yoki valyutaga oid tomonlari, shuningdek valyuta munosabatlari va hozirgi zamon valyuta tizimi asoslari, mamlakatning to'lov balansi va uning taqchilligi haqidagi muammolar o'rganiladi. Xalqaro valyuta kredit munosabatlari, valyuta tizimi va valyuta siyosati, ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga alohida e'tibor berilgan.*

Kalit so'zlar: *Jahon bozori, Valyuta, Kredit, Davlat, Eksport Kapital, Xalqaro savdo.*

Xalqaro savdo munosabatlari qadimda ham mavjud bo'lgan. Mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy aloqalar milliy davlatlarning paydo bo'lishi uchun yuzaga kelgan bo'lib, lekin ko'plab mamlakatlar, keyinchalik esa jahondagi barcha mamlakatlar savdosini qamrab oladigan Jahon bozori ya'ni jahon xo'jaligi faqat yirik mashinalashgan industiriyaga otish bilan shakllana boshlanadi. Yirik mashinalashgan ishlab chiqarishga o'tish milliy bozor chegaralarini yanada kengaytirdi. So'ngra tashqi savdo ko'plab mamlakatlarning ichki taraqqiyotini to'ldiradigan omildan mamlakat xo'jaligi taraqqiyotining zaruriyatiga aylandi. Bundan so'ng esa bir tovarni arzon va sifatli, resurslardan esa samarali foydalanib tovarlarni ko'plab yaratilishi mamlakat ixtisoslashuvi boshlanishiga olib keldi. Shundan so'ng biror mamlakatda resurslarni sarflash noqulay yoki ishlab chiqarish imkoni bo'lmagan mamlakatlar tovarlarni Jahon bozoridan sotib oladigan bo'ldi. Tovar, mehnat, kapital va valyutadan tashkil topgan Jahon bozorida asosan barcha mamlakatlar tashqi savdosining majmuini ifoda etadigan xalqaro savdo amalga oshiriladi. Bu tarkiban jahon miqyosidagi import va eksportdan iborat bo'ladi va ularning qiymati bo'yicha nisbati savdo balansi deb yuritiladi.

Xalqaro savdo bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular:

- iqtisodiy resurslarning harakatchanligi mamlakatlar o'rtasida mamlakat ichidagiga qaraganda past ko'rsatkichda bo'lishi;
- har bir mamlakat har xil valyutadan foydalanganligi sababli mamlakatlar o'rtasida xalqaro savdoni amalga oshirishda bir qator qiyinchiliklarga duch kelishi;
- xalqaro savdo siyosiy aralashuv va nazoratga mahkum bo'lib ichki savdoga nisbatan qo'llaniladigan tadbir tavsifi va darajasi bo'yicha sezilarli farq qilishi kabilar.

Hozirgi kunda xalqaro savdoni tashkil etish ham takomillashib bormoqda. An'anaviy ko'rinishdagi tovar birjalari, auksionlar, savdo-sanoat yarmarkalari, savdo